




JICA YURTIMIZDAGI IQTISODIY-IJTIMOYIY ISLOHOTLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MUHIM STRATEGIK HAMKOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-yanvar kuni Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Akixiko Tanaka boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Ushbu yetakchi xorijiy moliya instituti bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma tashabbuslarni ilgari surish masalalarini ko‘rib chiqildi.

Mamlakatimiz yetakchisi JICA rahbarining bu galgi tashrifi iqtisodiy va moliyaviy-texnik sohalardagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berishini

mamnuniat bilan qayd etdi. Agentlikning Yangi O‘zbekistonni barpo etish borasidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlashda strategik hamkor sifatidagi o‘rni qayd etildi.

Bugungi kunda energetika, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqa yo‘nalishlardagi qo‘shma loyihalar portfeli 8 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. O‘tgan yili hamkorlik bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilingan edi.

O‘zbekiston—Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi va Yoshlar innovatsiya markazi samarali faoliyat yuritmoqda.

Agentlik orqali 2,5 mingdan ortiq o‘zbekistonlik mutaxassis Yaponiyada o‘qidi va amaliyot o‘tadi. Ushbu mamlakatdan kelgan ko‘ngillilar O‘zbekistonda muhim ijtimoiy va gumanitar loyihalarni amalga oshirishga hissa qo‘shmoqda.

Bundan tashqari, kuni kecha Toshkent shahrida Respublika ixtisoslashtirilgan nevrologiya va insult ilmiy-amaliy tibbiyot markazini qurish va jihozlash to‘g‘risida bitim imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti JICAning mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish borasidagi rejalarini qo‘llab-quvvatladi.

Xususiy sektor loyihalarini amalga oshirish, yaponiyalik investorlar uchun maxsus iqtisodiy zona tashkil etish, Yaponiya universitetini ochish, shuningdek, professional ta‘lim sohasida hamkorlik qilish muhimligi qayd etildi.

“Yo‘l xaritasi” asosida joriy va istiqbolli loyihalarni ilgari surishning yangi mexanizmlarini tatbiq etishga kelishib olindi.

O‘ZA

CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKDAGI YANGI LOYIHALAR NATIJASIDA MAHSULDORLIK IZCHIL OSHIB BORMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-yanvar kuni parrandachilikni rivojlantirish va yaylovlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Bu tarmoqlar aholini oziq-ovqat xavfsizligi va arzonligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillardagi sharoitlar va loyihalar natijasida mahsuldorlik izchil oshib bormoqda. Bu sur‘atni davom ettirib, joriy yilda 1 million tonna parranda go‘shiti, 10 milliard 500 million dona tuxum yetishtirish mo‘ljallangan. Eksportni 2 karra oshirib, 180 million dollarga olib chiqish ko‘zda tutilgan.

Chorvachilikda 1 ming 350 ta loyihani ishga tushirib, 3 million 200 ming tonna go‘shiti yetishtirish, 13 million tonnadan ziyod sut olib, uning 30 foizini sanoat usulida qayta ishlash hisob-kitob qilingan.

Taqdimotda ushbu ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Masalan, yurtimizda go‘shiti yo‘nalishidagi parrandaning 1-tartibli genetikasini tashkil qilish boshlangan. Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda endi buni tuxumchilik bo‘yicha ham yo‘lga qo‘yish mo‘ljallanmoqda.

Parrandachilik kooperatsiyasi bo‘yicha Andijon, Namangan, Samarqand va Xorazmda yaxshi tajribalar bor. Bunda ham odamlar daromad topyapti, ham parrandachilik korxonalarining ishi yurishyapti.

Masalan, Qo‘shrabot tumanidagi “Yeti xazina” korxonasi xonadonlarga emlangan tovuq, qafas va yem tarqatib, tuxumini o‘zi sotib olyapti.

Bunday loyihalarni barcha viloyatlarda qilib, mahsulot va ish o‘rinlarini ko‘paytirish zarurligi ta‘kidlandi. Bunga 50 million dollar yo‘natilishi belgilandi.

Vaqtincha to‘xtab qolgan yoki kam quvvatda ishlayotgan parrandachilik korxonalarini

moliyaviy sog‘lomlashtirib, faoliyatini yaxshilash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Xalq rizq-ro‘zining yana bir katta manbai — yaylovlar. Lekin ularning deyarli yarmidan foydalanilmayapti. Negaki yaylov o‘simliklari urug‘chiligi rivojlanmagan, suv inshootlari va quduqlar yetishmaydi. Bunday maydonlarning xaritasi va ijariasi raqamlashtirilmagan.

Shu bois, yaylovlarni Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tizimiga o‘tkazish taklif etilmoqda. “E-yaylov” elektron xaritasi ishlab chiqilib, har bir maydon ushbu tizimga kiritiladi. Unda chorva, ekin yoki geologiyaga mo‘ljallangan joylar aniq namoyon bo‘ladi.

Bunday maydonlar eng ko‘p bo‘lgan 7 ta viloyatda yaylov xo‘jaliklari tashkil qilinadi. Ular o‘rmon xo‘jaliklari yaylovlarni asrash va samarali foydalanishga mas‘ul bo‘ladi. Yaylov xo‘jaliklaridagi yerlar auktsion orqali chorva boqish, pista, bodom kabi ko‘chatlarni ekish uchun aholiga 30 yilga ijaraga beriladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, yaylovlarni degradatsiyadan chiqarish, qo‘shimcha quduqlar qazish va yaylov urug‘chiligi tashkil qilish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Bu yil 500 ming gektar yaylovda 1 million bosh qo‘yni tartibli boqish bo‘yicha namunaviy loyiha amalga oshirilishi aytiladi.

Chorvachilik va parrandachilik korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalarini muhokama qilindi. Yangi loyihalar va kooperatsiya hisobiga aholi bandligini oshirib, kambag‘allikni qisqartirish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

Munosabat

O‘ZBEKISTON VA BAA O‘RTASIDAGI IQTISODIY HAMKORLIKNING YANGI DAVRI

Shu yil 13-15-yanvar kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Birlashgan Arab Amirliklarida bo‘ldi. Tashrif doirasida ushbu mamlakat oliy rahbarlari va biznes doiralari vakillari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” xalqaro sammitida ham ishtirok etdi. Samarali kechgan mazkur tashrif ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar tarixida yangi sahifani ochib berdi.



Barqaror rivojlanish bo‘yicha sammitda ishtirok

Prezidentimiz tashrifining ikkinchi kunida BAA poytaxtida “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” sammitining ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

“Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” 2008-yilda BAA hukumati va “Masdar” kompaniyasi tomonidan barqaror rivojlanish sohasidagi global muammolarni hal etish uchun tashkil qilingan xalqaro platformadir. Bu galgi sammit kun tartibi “yashil” iqtisodiyot sohasida barqaror taraqqiyotni ta‘minlash, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etish, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash masalalaridan iborat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari nutqida yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘shishning resurslar tejamliligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish ekanini ta‘kidladi. Aynan shu sababli 2025-yil O‘zbekistonda Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e‘lon qilindi.

Mamlakatimizda Kam uglerodli rivojlanish bo‘yicha uzoq muddatli strategiya va “yashil” moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqildi. Yaqin besh yilda investitsiya loyihalarida “yashil” komponentlarni 50 foizgacha ko‘paytirish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, zararli gazni monitoring qilish va milliy emissiya savdo tizimlari joriy etiladi. 2030-yilgacha zararli chiqindilarni 35 foiz qisqartirish va bu majburiyatni doimiy oshirib borish maqsad qilingan.

▶ Davomi 3-beta

Yuksalish pallasi

UCHINCHI RENESSANS “OLTIN FOND”LARI TOSHKENT SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI O‘QUVCHILARI BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDA SHAYX ZOID OL NAHAYON NOMIDAGI MUKOFOTNING “GLOBAL O‘RTA MAKTABLAR” NOMINATSIYASIDA G‘OLIB BO‘LDI

Birlashgan Arab Amirliklarida bo‘lib o‘tgan “Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi” xalqaro sammitining ochilishi hamda barqaror rivojlanish sohasida Shayx Zoid Ol Nahayon nomidagi mukofotni topshirish marosimi shukuhli hali qalblarni tark etgani yo‘q. Ayni shu sammitda Toshkent shahridagi Prezident maktabi o‘quvchilari mazkur mukofotning “Global o‘rta maktablar” nominatsiyasida g‘olib deb topilgan qablarga katta g‘urur va iftixor bag‘ishladi. Bu g‘alaba davlatimiz rahbarining Birlashgan Arab Amirliklariga tashrifining o‘ziga xos voqealaridan bo‘ldi.



Xo‘sh, “Zayed Sustainability Prize” tanlovining mohiyati nimadan iborat, unda yurtdoshlarimiz qanday loyiha bilan qatnashdi?

Tanlov 2008-yili barqarorlik sohasidagi innovatsion g‘oyalar va tashabbuslarni e‘tirof etish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil qilingan. Bunda energetika, suv, oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘liqni saqlash yo‘nalishlariga doir mavjud global muammolarning innovatsion yechimlari taklif etiladi. Joriy yilda tanlovga taqdim etilgan loyihalar bir-biridan qiziqarli, bir-biridan muhim edi. 6 mingga yaqin ishtirokchilarning loyihalaridan o‘zbekistonlik o‘quvchilarning g‘oliblikni qo‘lga kiritgani juda quvonchli bo‘ldi. Abu-Dabi shahridagi taqdirlash marosimida davlatimiz rahbarining ishtirok etgani va g‘oliblarni shaxsan qutlagani o‘quvchilar qalbiga katta hayajon, faxr-iftixor ulashib, yangi maralar sari undadi.

▶ Davomi 5-beta

Iftixor

Abduqodir HUSANOV BUTUN DUNYO NIGOHINI O‘ZBEKISTONGA QARATDI

So‘nggi kunlarda dunyo futbol olami yaxshi ma‘noda qalqib turdi. Sportning ushbu turiga uncha qiziqmaydigan yurtdoshlarimiz ham tarqalayotgan axborot oqimini diqqat bilan kuzatdi, aniqrog‘i, eng quvonchli mujdani kutdi. Nihoyat jahon matbuoti o‘sha xabar bilan to‘lib toshdi: o‘zbekistonlik 20 yoshli futbolchi Abduqodir Husanov gigant jamoa — Angliyaning amaldagi chempioni “Manchester Siti” tarkibidan joy oldi.

▶ Davomi 6-beta

